

## 2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy  
iste'mol narxlari indeksi (INI), % da

### 2020- yil sentabr



2020- yilning avgustiga

✓ 2020- yilning sentabrida o'rtacha iste'mol narxlari va tariflari darajasi oy davomida **1,4 %** ga ko'tarildi.



2019- yilning dekabriga

✓ 2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida iste'mol bozoridagi narxlar va tariflar o'rtacha **6,3 %** ga oshdi.



2019- yilning sentabriga

✓ Yillik davrda (2019- yilning sentabriga nisbatan) tovarlar va xizmatlar narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati **11,7 %** ni tashkil etdi.

### 2019- yil sentabr



2019- yilning avgustiga

✓ 2019- yilning sentabrida tovarlar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha **1,3 %** ga ko'tarilgan.



2018- yilning dekabriga


✓ 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida tovarlar va xizmatlar o'rtacha **9,7 %** ga qimmatlashgan.



2018- yilning sentabriga

✓ 2018- yilning sentabriga nisbatan 2019- yilning sentabr oyida tovarlar va xizmatlar narxlari o'rtacha **16,0 %** ga oshgan.


**O'rtacha oylik INI<sup>1</sup> o'sishi** hisoblash natijalariga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida **0,7 %** ni, 2019- yilning shu davrida esa **1,0 %** ni tashkil etgan.




### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, % da




#### o'tgan oyga nisbatan



#### o'tgan yilning dekabriga nisbatan




#### o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



<sup>1</sup> Narxlar indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati, ko'rib chiqilayotgan davrning har bir oyi uchun qisqa muddatli narx indekslarining oldingi oyga nisbatan o'rtacha geometrik qiymati sifatida hisoblanadi.


Joriy yilning sentabr oyi davomida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxi o'rtacha **2,2 %** ga, **nooziq-ovqat mahsulotlar** **1,0 %** ga va **xizmatlar** **0,5 %** ga qimmatlashdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar  
va xizmatlar asosiy guruhlarining INI dinamikasi,  
% da

**o'tgan oyga nisbatan**


### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar



### Xizmatlar




**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxi 1,4 % ga, nooziq-ovqat mahsulotlar 0,9 % ga va xizmatlar 2,0 % ga qimmatlashgan.



2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy tovarlar va xizmatlar guruhi narxlari o'zgarishining umumiy INIdagi ta'siri, f.d.\*

**o'tgan oyga nisbatan**



- ✓ **Oziq-ovqat mahsulotlari** narxlarining ko'tarilishi hisobiga umumiy INI ko'rsatkichi **0,9 f.d.ga** o'sdi.
- ✓ **Nooziq-ovqat mahsulotlar** narxlarining ko'tarilishi umumiy ko'rsatkichning oy davomidagi o'sishiga **0,4 f.d.** ta'sir etdi.
- ✓ **Xizmatlar** narxlari va tariflarining o'sishi natijasida umumiy INI qo'shimcha ravishda **0,1 f.d.** ga oshdi.



\*) shu va keyingi o'rinlarda foiz darajasi.

**Ma'lumot uchun:** oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi hisobiga 2019- yilning sentabrida oylik umumiy INI 0,6 f.d.ga ko'tarilgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida esa 0,3 f.d.ga, xizmatlar tariflarining qimmatlashishi natijasida 0,4 f.d.ga oshgan.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar  
va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi  
hamda umumiy INI o'sishi (pasayishi)dagi ta'siri, f.d.**

**o'tgan oyga nisbatan**




Umumiy iste'mol narxlarini indeksining oylik o'sishiga nooziq-ovqat mahsulotlar (tebranish 0,1-0,4 f.d. oraliqda) va xizmatlar (0,1-0,2 f.d.) narxlarini o'zgarishlarining ta'siri nisbatan barqarorligi holatida, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini o'zgarishining ta'siri birmuncha kattaroq bo'ldi (-0,6 f.d.dan 1,4 f.d.gacha).

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-mayida oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasining ta'siri 1,2 f.d.dan (yanvar) 0,2 f.d.gacha (may) kamayib, iyun-iyul oylari davomida esa umumiy INIning pasayishiga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsada, avgust oyida yana umumiy ko'rsatkichning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


Umumiy hisobda, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari darajasi **7,5 %** ga, **nooziq-ovqat mahsulotlar** **6,0 %** ga, **xizmatlar** **4,5 %** ga oshdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar, shuningdek, xizmatlar narxlarining o'sishi mos ravishda 8,4 %, 8,8 % va 13,7 % ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar  
va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Har bir yirik guruhning salmoq vaznini hisobga olgan holda, narxlarning o'zgarishiga qo'shgan hissasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabrida yetakchilik borasida oziq-ovqat mahsulotlari ta'sirining ustunligi oylar davomida saqlanib qoldi.





**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va umumiy INI o'sishidagi ta'siri, f.d.**

**o'tgan yilning dekabriga nisbatan**



Jami tovarlar va xizmatlar



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Oziq-ovqat mahsulotlari




Xizmatlar

2019- yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida tovarlar narxlarining o'zgarishi hisobiga umumiy INI 5,3 f.d.ga oshdi. Shu bilan birga, yanvar-sentabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlar narxlarini dinamikasi barqaror ravishda o'sish tomon yo'nalgan (mos ravishda 0,1 f.d.dan 2,1 f.d.gacha va 0,1 f.d.dan 1,0 f.d.gacha). Oziq-ovqat mahsulotlari uchun ushbu ko'rsatkich yilning birinchi to'rt oyida ko'tarilib (0,4 f.d.dan 3,3 f.d.gacha), shundan so'ng mavsumiy omillar hisobiga pasaydi (iyul oyida 2,1 f.d.gacha va avgust oyida 2,2 f.d.gacha), sentabr oyida esa yana 1,0 f.d.ga o'sib, jami 3,2 f.d.ga yetdi.

**2020- yilning sentabrda tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishining umumiy INI o'sishidagi hisssasi, % da**



**o'tgan yilning dekabriga nisbatan**



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

2019- yilning dekabriga nisbatan 2020- yilning sentabr oyida ta'sir ulushi ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy INI o'sishida oziq-ovqat mahsulotlarining hisssasi 50,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 33,0 % va xizmatlar 16,4 % ni tashkil etdi.


**Ma'lumot uchun:** 2018- yilning dekabriga nisbatan 2019- yilning sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi sababli umumiy INI 3,7 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar ta'sirida umumiy hisobda 6,0 f.d. ga (3,0 f.d.dan) oshgan.

2020- yilning sentabrda tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarini narxlarini o'zgarishining umumiy INI o'sishidagi hisssasi, f.d. va % da



**o'tgan yilning sentabr oyiga nisbatan**

Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarini narxlarining o'zgarishi va yillik umumiy INI o'sishidagi ta'siriga ko'ra, joriy yilning sentabrda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi natijasida ushbu ko'rsatkich 11,7 f.d. (umumiy ta'sirning 64,4 %), nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida 2,8 f.d. (24,1 %), xizmatlar ta'sirida 1,4 f.d.ga (11,5 %) oshgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Xizmatlar

**Ma'lumot uchun:** 2018- yilning sentabriga nisbatan 2019- yilning sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi natijasida umumiy INI 7,6 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar ta'sirida 4,2 f.d.dan oshgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Kuzatuvdagi **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari oy davomida **2,2 %** ga qimmatlashdi. O'tgan oyga nisbatan qisqa muddatli INIga ushbu guruhdagi go'sht, yog'-moy, non mahsulotlari, tuxum narxlarining ko'tarilishi, shuningdek, meva va sabzavotlar narxlarining mavsumiy o'zgarishi sezilarli ta'sir ko'rsatdi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlarining INI, % da



o'tgan oyga  
nisbatan



o'tgan yilning  
dekabriga nisbatan



o'tgan yilning sentabriga  
nisbatan

2020- yil boshidan guruh mahsulotlari o'rtacha narxlarining o'sish sur'ati **7,5 %**, oylik o'rtacha o'sish sur'ati **0,8 %** ni tashkil etdi.

2019- yilning sentabr oyiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **17,7 %** ga qimmatlashgan.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida 1,4 % ga, 2018- yilning dekabriga nisbatan 8,4 % ga, 2018- yilning sentabriga nisbatan esa 17,5 % ga qimmatlashgan. 2019- yilning yanvar-sentabrida ushbu guruh bo'yicha o'rtacha oylik INI o'sishi 0,9 % ni tashkil etgan.



## 2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Joriy yilning sentabr oyida kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan tuxum (6,5 %) go'sht, parranda go'shti va baliq (3,8 %) va meva-sabzavot mahsulotlari (3,0 %) narxlari sezilarli darajada ko'tarildi. Yog'-moy mahsulotlari narxlari oy davomida 2,3 % ga, non mahsulotlari 1,2 % ga, sut mahsulotlari 1,0 % ga, shakar, choy va boshqa mahsulotlar 0,5 % ga, spirtli va alkogolsiz ichimliklar 0,4 % va 0,2 % ga qimmatlashdi. Umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlar oy davomida 1,3 % ga ko'tarildi.


2019- yilning oxiriga nisbatan tuxum, go'sht, parranda go'shti va baliq (14,2 %), non (13,1 %), yog'-moy (9,8 %), sut mahsulotlari (7,5 %), shuningdek, shakar, choy va boshqa mahsulotlar (6,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. O'tgan davr mobaynida umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlar 9,0 % ga qimmatlashdi. Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari yil boshidagi narxlarga nisbatan 6,3 % ga arzonlashdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan tuxum (8,2 %) go'sht, parranda go'shti va baliq (2,7 %), shakar, choy va boshqa mahsulotlar (1,6 %), non mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar (1,2 %) narxlari boshqalarga nisbatan sezilarli darajada ko'tarilib, meva-sabzavotlar narxlari esa aksincha, 1,1 % ga arzonlashgan. 2018- yilning dekabriga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinlar go'sht va sut mahsulotlari (18,0 % va 12,5 %), shuningdek, alkogolsiz ichimliklar (11,8 %) narxlariga tegishli bo'lgan.

Har bir guruh mahsulotlari narxlari o'zgarishining batafsil tahlili quyidagicha aks etgan:



**2020- yilning yanvar-sentabrida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha non  
mahsulotlarining INI dinamikasi, % da**



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida **non mahsulotlari** narxlari o'sishining eng yuqori darajasi aprelda qayd etilib, ushbu guruh tovarlari narxlari o'rtacha 4,3 % ga ko'tarilgan. Ushbu guruh narxlarining yanvar-sentabr oylari davomidagi o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,4 % ni tashkil etdi.

**Non mahsulotlari**  
(yorma va dukkaklilar bilan)

**2020- yilning sentabrida**  
**narxlarning o'sishi (pasayishi), % da**




**Non mahsulotlaridan** (yorma va dukkaklilarni qo'shgan holda) oy davomida ushbu guruhga taalluqli bo'lgan guruch va oqshoq (3,2 %), no'xat (2,8 %), shuningdek, vermishel, makaron va shunga o'xshash mahsulotlar (0,8 % - 1,2 % oraliqda) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Loviya (-2,4 %) va grechka (-1,2 %) narxlari birmuncha arzonlashganligi qayd etildi. O'tgan yilning oxiriga nisbatan grechka (1,5 baravar), loviya (1,4 baravar), no'xat va mosh (1,2 baravar) mahsulotlari narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinni egallashda davom etmoqda.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabr oyida non mahsulotlari (yorma va dukkaklilar bilan) 1,2 % ga (yil boshidan 9,0 %), jumladan, yorma va dukkakli mahsulotlar narxlari o'rtacha 1,8 % (14,9 %), bug'doy uni 1,0 % (6,3 %) ga qimmatlashgan.





## 2020- yilning yanvar-sentabrda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlarining INI dinamikasi, % da




**Go'sht, parranda go'shti va baliq** mahsulotlari narxlarining oy davomidagi yuqori o'sishi sentabrda (3,8 %), past sur'atlarda o'sishi esa yanvar, iyun va iyul oylarida qayd etilgan (0,4 % dan).

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning sentabr oyida ushbu mahsulotlarning INI 114,2 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,5 % ni tashkil etgan.

### Go'sht, parranda go'shti va baliq

### 2020- yilning sentabrda narxlarning o'sishi (pasayishi), % da





**Go'sht mahsulotlari** narxlarini oy davomida o'rtacha 3,8 % (yil boshidan 14,2 %) ga qimmatlashdi. Qo'y go'shti narxlarini sentabr oyida 5,7 % (20,9 %), mol go'shti (suyaksizdan tashqari) 5,4 % (17,4 %), suyaksiz mol go'shti 5,0 % (17,2 %), go'sht qiymasi 4,2 % (14,1 %), cho'chqa go'shti 1,4 % (10,0 %), tovuq boldiri, son qismlari narxlarini 0,3 % (4,6 %) ga ko'tarilgan. Boshqa parranda go'shti narxlarini oy davomida 0,3 % ga arzonlashib, 2019- yilning dekabr oyiga nisbatan 1,7 % ga qimmatlashgan.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabr oyida go'sht mahsulotlarining narxlarini o'rtacha 2,7 %, jumladan, mol go'shti 2,3 % - 3,5 %, cho'chqa go'shti 3,2 %, parranda go'shti (sonlaridan tashqari) 3,0 % qo'y go'shti 2,9 %, go'sht qiymasi 1,7 % va tovuq boldiri hamda son qismlari 1,6 % ga ko'tarilgan.

Umumiy hisobda, o'tgan yilning yanvar-sentabr oylarida go'sht, parranda go'shti va baliq narxlarini 18,0 % ga qimmatlashgan. Ushbu davrda mol go'shti (19,1 % - 21,6 %), qo'y go'shti (19,5 %), tirik va sovutilgan baliq (16,9 %) narxlarini boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashgan.



### 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxumning INI dinamikasi, % da



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida **tuxum** narxlarini dinamikasi bir maromda bo'lmadi. Oy davomidagi narxlarning pasayishi fevral (2,1 %), mart (3,5 %), iyun (2,5 %) va iyulda (2,3 %), narxlarning eng yuqori o'sishi aprel (8,1 %), may (5,5 %) va sentabrda (6,5 %) qayd etildi.

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning sentabr oyida tuxumning INI 114,2 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,5 % ni tashkil etgan.









## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlarining INI dinamikasi, % da


2020- yilning yanvar-sentabrida **sut mahsulotlari** narxlari dinamikasi, o'sish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Guruh bo'yicha narxlarning oy davomidagi maksimal o'sishi aprelda (2,5 %), minimal o'sishi iyul oyida qayd etilgan (0,1 %).

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning sentabr oyida sut mahsulotlarining INI 107,5 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,8 % ni tashkil etgan.



### Sut mahsulotlari

### 2020- yilning sentabr oyida narxlarning o'sishi, % da





**Sut mahsulotlaridan** oy davomida sut (1,5 % - 1,7 %), suzma (1,7 %), qaymoq (1,6 %) narxlari boshqalarga nisbatan sezilarli qimmatlashdi. Yil boshidan esa qatiq, chuchuk qatiq (10,4 %) va sut (10,2 %) narxlari sezilarli darajada ko'tarildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida smetana va qaymoq (1,5 %), shuningdek, yangi sog'ilgan sut va yogurt (1,4 %) narxlari yuqori sur'atda oshgan.

2018- yil oxiriga nisbatan narxlarning ko'tarilishi bo'yicha yetakchi o'rinlarni qatiq, chuchuk qatiq (16,7 %), qaymoq (15,4 %) va yangi sog'ilgan sut (15,3 %) narxlari egallagan.



### 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mevalar, sabzavotlar va kartoshkaning INI dinamikasi, % da



2020- yilning yanvar-sentabrida **meva-sabzavot mahsulotlari** narxlarining oy davomidagi yuqori o'sishi aprelda (6,6 %), pasayishi esa iyun oyida (-8,4 % ga) qayd etilgan. Sentabr oyida guruh narxlarining o'sish sur'ati 3,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, joriy yilning sentabr oyida ushbu mahsulotlarning o'rtacha narxlari o'tgan yilning dekabridagi narxlardan 6,3 % ga past bo'ldi.

Joriy yilning sentabr oyida ushbu guruh mahsulotlaridan anor (15,5 %), karam (14,1 %), shaftoli (14,2 %) va banan (14,0 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Shu bilan bir qatorda, pomidor (-6,4 %), bulg'or qalampiri (-6,3 %), limon (-6,1 %), olma (-1,4 %) narxlarining arzonlashganligi qayd etildi.



**Mevalar, sabzavotlar  
va kartoshka**

**2020- yilning sentabr oyida  
narxlarning o'sishi (pasayishi), % da**

|                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Bodring</b><br><br>oy davomida<br>+9,4<br>yil boshidan<br>-78,0            | <b>Kartoshka</b><br><br>oy davomida<br>0,0<br>yil boshidan<br>+33,9    | <b>Piyo</b><br><br>oy davomida<br>+0,6<br>yil boshidan<br>-20,8    |
| <b>Sabzi</b><br><br>oy davomida<br>+8,1<br>yil boshidan<br>+42,6              | <b>Karam</b><br><br>oy davomida<br>+14,1<br>yil boshidan<br>-8,2       | <b>Sarimsoq</b><br><br>oy davomida<br>+0,9<br>yil boshidan<br>+3,1 |
| <b>Bulg'or qalampiri</b><br><br>oy davomida<br>-6,3<br>yil boshidan<br>-85,8 | <b>Pomidor</b><br><br>oy davomida<br>-6,4<br>yil boshidan<br>-79,4    | <b>Banan</b><br><br>oy davomida<br>+14,0<br>yil boshidan<br>+15,0 |
| <b>Limon</b><br><br>oy davomida<br>-6,1<br>yil boshidan<br>+151,1           | <b>Uzum</b><br><br>oy davomida<br>+1,6<br>yil boshidan<br>-8,5       | <b>Olma</b><br><br>oy davomida<br>-1,4<br>yil boshidan<br>-16,6  |
| <b>Anor</b><br><br>oy davomida<br>+15,5<br>yil boshidan<br>-11,5            | <b>Shaftoli</b><br><br>oy davomida<br>+14,2<br>yil boshidan<br>+14,5 | <b>Nok</b><br><br>oy davomida<br>+5,2<br>yil boshidan<br>-0,6    |

2019- yilning oxiriga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik limon (1,5 baravar), pasayish bo'yicha bulg'or qalampiriga (85,5 %) tegishlidir.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlari oy davomida o'rtacha 1,1 % ga arzonlashgan. Qovun narxlari sezilarli darajada pasayib (-15,5 %) sarimsoq narxlari yuqori darajada qimmatlashgan (9,3 %).




2019- yilning yanvar-sentabrida ushbu guruh mahsulotlari 5,5 % ga arzonlashgan. Narxlarning maksimal o'sishi piyozda (1,8 baravar), pasayishi esa bodring mahsulotida qayd etilgan (78,4 %).




## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar, choy va boshqa mahsulotlarning INI dinamikasi, % da

Boshqa oylarga nisbatan **shakar, choy va boshqa mahsulotlar** narxlari martdan maygacha oshib (1,0 % dan 1,6 % gacha), sentabr oyida narxlar 0,5 % ga qimmatlashdi.



2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning sentabr oyida ushbu mahsulotlar guruhi INI-ning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,7 % ni tashkil etgan holda 106,2 % ga oshdi.



## Shakar, choy va boshqa mahsulotlar

## 2020- yilning sentabr oyida narxlarning o'sishi, % da

oy davomida yil boshidan




Joriy yilning sentabr oyida shakar narxlari 0,7 % (yil boshidan 5,4 %), oq qand 0,6 % (6,8 %) ga qimmatlashdi. Qandolat mahsulotlari narxlari oy davomida 0,6 % (yil boshidan 6,9 %), kofe va choy 0,5 % (5,6 %), boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari (tuz, ziravorlar va boshqalar) 0,3 % (4,6 %) ga oshdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrda shakar, choy va boshqa mahsulotlar narxlari o'rtacha 1,6 % ga, jumladan shakar 4,5 %, qandolat va boshqa mahsulotlar 1,0 %, kofe va choy 0,4 % ga qimmatlashdi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu guruh mahsulotlari 7,5 % ga qimmatlashib, narxlarning o'sishi bo'yicha qandolat mahsulotlari yetakchilik qilgan (8,9 %).



### 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yog' va moy mahsulotlarning INI dinamikasi, % da



**Yog' va moy** mahsulotlari narxlarining oy davomida sezilarli darajadagi o'sishi sentabr oyida qayd etilib (2,3 %), narxlarning minimal o'sishi esa yanvar oyida kuzatigan (0,1 %). Yanvar-sentabr oylari davomida ushbu mahsulotlar guruhi INI ning o'rtacha oylik o'sishi sur'ati 1,0 % ni tashkil etdi. Yil boshidan esa yog' va moy mahsulotlari narxlari o'rtacha 9,8 % ga o'sdi.

2020- yilning sentabrda paxta yog'i narxlari oy davomida 3,0 %, kungaboqar yog'i 2,4 %, sariyog' 1,6 %, eritilgan va hayvon yog'lari 1,1 %, margarin 0,8 % ga ko'tarilgan.

Yil boshidan kungaboqar yog'i 11,3 %, paxta yog'i 9,4 %, sariyog' 9,3 %, margarin 8,6 %, eritilgan va hayvon yog'lari 8,4 % ga qimmatlashgan.





**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrda yog'-moy mahsulotlari narxlari oy davomida 1,0 % (yil boshidan 5,1 %) ga, jumladan, iste'mol yog'lari 1,5 % (7,9 %), sariyog' 1,3 % (12,7 %), kungaboqar yog'i 1,2 % (3,9 %), margarin 1,0 % (9,2 %), paxta yog'i 0,7 % (2,6 %) ga ko'tarilgan.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan yillik davrda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan narxlarning o'zgarishi bo'yicha yetakchi o'rinni tuxum narxlari egallashda davom etmoqda (47,5 %).



**2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da**

**2019- yilning sentabriga nisbatan**

|                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                   |                                                                                                                                      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  <p>129,8</p> <p><b>Non mahsulotlari</b></p>                    |  <p>119,5</p> <p><b>Go'sht, parranda go'shti va baliq</b></p>  |  <p>112,9</p> <p><b>Sut mahsulotlari</b></p>     |
|  <p>147,5</p> <p><b>Tuxum</b></p>                              |  <p>113,7</p> <p><b>Mevalar, sabzavotlar va kartoshka</b></p> |  <p>112,3</p> <p><b>Yog' va moylar</b></p>      |
|  <p>110,1</p> <p><b>Shakar, choy va boshqa mahsulotlar</b></p> |  <p>105,2</p> <p><b>Alkogolsiz ichimliklar</b></p>            |  <p>110,5</p> <p><b>Spirтли ichimliklar</b></p> |


Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarini narxlarining ko'tarilishi va ularning oy davomidagi umumiy INI ning o'sishiga qo'shgan hissasi tahlili natijalariga ko'ra, meva-sabzavot va go'sht mahsulotlari narxlarining o'zgarishi jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari narxlari ta'sirida umumiy INI oy davomida 0,39 f.d.ga, meva-sabzavot mahsulotlari 0,23 f.d.ga, non mahsulotlarida 0,08 f.d.ga, yog'-moy mahsulotlari 0,07 f.d.ga, tuxum ta'sirida 0,06 f.d.ga, shakar, choy va boshqa mahsulotlar ta'sirida 0,03 f.d.ga oshdi.



**2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, f.d.**

**o'tgan oyga nisbatan**



|                                                                                 |                                                                          |
|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| <span style="color: orange;">■</span> non mahsulotlari (+0,08)                  | <span style="color: green;">■</span> meva, sabzavot va kartoshka (+0,23) |
| <span style="color: yellow;">■</span> go'sht, parranda go'shti va baliq (+0,39) | <span style="color: red;">■</span> shakar, choy va boshqalar (+0,03)     |
| <span style="color: lightgreen;">■</span> sut mahsulotlari (+0,03)              | <span style="color: blue;">■</span> yog' va moylar (+0,07)               |
| <span style="color: purple;">■</span> tuxum (+0,06)                             | <span style="color: lightblue;">■</span> boshqalar (+0,03)               |


2019- yilning dekabriga nisbatan umumiy INI tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi salmoqli ulush go'sht, parranda go'shti va baliq (1,45 f.d.), shuningdek, non (0,90 f.d.) mahsulotlari guruhiga tegishli. 2019- yilning dekabriga nisbatan shakar, choy va qandolat mahsulotlari narxlarining o'sishi ta'sirida umumiy INI 0,36 f.d.ga, yog' va moylar narxlari ta'sirida 0,29 f.d.ga sut mahsulotlari ta'sirida 0,26 f.d.ga, tuxum ta'sirida 0,12 f.d.ga oshdi. Mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlarining arzonlashishi hisobiga umumiy ko'rsatkich 0,49 f.d.ga pasaygan.

Yillik davrda umumiy INI o'sishidagi ta'sir ulushiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlaridan non mahsulotlari (2,04 f.d.) go'sht, parranda go'shti va baliq (1,99 f.d.), meva-sabzavot mahsulotlari (1,06 f.d.), shuningdek, shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (0,60 f.d.) ustunlik qilmoqda.

## Nooziq-ovqat mahsulotlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlarning INI, % da



o'tgan oyga  
nisbatan



o'tgan yilning  
dekabriga nisbatan



o'tgan yilning  
sentabriga nisbatan

2020- yilning sentabrida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari oy davomida o'rtacha **1,0 %** ga qimmatlashdi.

2019- yilning dekabriga nisbatan ushbu guruh mahsulotlari narxlari **6,0 %** ga, 2019- yilning sentabriga nisbatan **8,2 %** ga ko'tarildi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,6 %** ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oy davomidagi o'sish sur'ati **0,9 %** ni, 2018- yilning dekabriga nisbatan **8,8 %** ni, 2018- yilning sentabriga nisbatan esa **12,1 %** ni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu mahsulotlar guruhi INI ning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,9 %** ni tashkil etgan.

2020- yilning sentabrida nooziq-ovqat mahsulotlarning asosiy guruhlari orasida narxlarning oy davomida o'sishi bo'yicha yetakchi o'rin avtomobillar uchun yoqilg'i narxlariga tegishli bo'lib, bunda narxlarning **3,4 %** ga o'sishi kuzatilgan.



## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar alohida guruhlarining INI, % da

o'tgan oyga nisbatan



**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida nooziq-ovqat mahsulotlardan oy davomida narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik zargarlik buyumlari (1,8 %), shuningdek, shaxsiy gigiyena mahsulotlariga (1,5 %) tegishlidir.







**2020- yilning yanvar-sentabrda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar alohida guruhlarining INI dinamikasi, % da**

**o'tgan oyga nisbatan**


**Kiyim-kechak**




**Oyoq kiyim**




**Mato va yigirilgan iplar**




**Maishiy to'qimachilik mahsulotlari**




**Madaniy mollar**




**Qurilish materiallari**




**Dori-darmonlar**




**Shaxsiy gigiyena mahsulotlari**




**Avtomobil uchun yoqilg'i**




**Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari**




**Tamaki mahsulotlari**




**Zargarlik buyumlari**



**Yuvish va tozalash vositalari**



**Shaxsiy transport**



Izoh: oylar rim raqamlarida keltirilgan.



**2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston  
Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar  
alohida guruhlarining INI, % da**



2019- yilning dekabriga nisbatan bosma-nashr (13,7 %), qurilish materiallari (11,3 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Yillik davrda esa tamaki mahsulotlari, kitoblar, gazetalar va jurnallar (15,6 %) va qurilish materiallari (14,1 %) narxlari sezilarli darajada oshdi.



2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarini narxlarining umumiy INI o'sishidagi hisssasi, f.d. da.

o'tgan oyga nisbatan



Izoh: ulushni hisoblashda natijalar 0,01 f.d.gacha yaxlitlangan.

2020- yilning sentabr oyida salmoq vaznlarni hisobga olgan holda nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarini narxlarining o'zgarishi va ularning oy davomidagi umumiy INI o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra, kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,11 f.d.), avtomobillar uchun yoqilg'i va ehtiyot qismlar (0,09 f.d.) narxlarining ko'tarilishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Dori-darmonlar narxlarini ta'sirida umumiy ko'rsatkichga qo'shimcha 0,04 f.d., maishiy to'qimachilik, mebel, gilam va gilam mahsulotlari umumiy ta'sirida 0,03 f.d., aloqa vositalari, asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari ta'sirida 0,02 f.d., shaxsiy gigiyena, yuvish va tozalash vositalari ta'sirida 0,02 f.d.gacha ortgan. Boshqa nooziq-ovqat mahsulotlar guruhi narxlarining o'sishi - umumiy ko'rsatkichning 0,05 f.d.da o'sishiga sabab bo'ldi.

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning sentabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarini orasida umumiy INIning oshishiga qo'shgan hisssasi bo'yicha yetakchi uchlikni kiyim-kechak (0,41 f.d.), qurilish materiallari (0,37 f.d.), dori-darmonlar (0,30 f.d.) narxlarini band etgan. Umumiy hisobda, ushbu guruhlar nooziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ta'sirini 52 % dan ortig'ini tashkil etadi.

Yillik davrda ham nooziq-ovqat mahsulotlar orasida umumiy INI o'sishiga ta'siri bo'yicha yetakchi o'rinlar ham yuqorida qayd etilgan uch guruhga mansub. Shunday qilib, kiyim-kechak narxlarining qimmatlashishi hisobiga umumiy ko'rsatkich 0,65 f.d.ga, qurilish materiallari narxlari ta'sirida 0,46 f.d.ga hamda dori-darmonlar narxlari o'zgarishi oqibatida 0,38 f.d.ga ortgan. Yillik davr mobaynida INI o'sishidagi ushbu guruhlarining ulushi nooziq-ovqat mahsulotlar umumiy ta'sirining taxminan 52 % ini tashkil etgan.

### Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun  
pullik xizmatlarning INI, % da



o'tgan oyga  
nisbatan



o'tgan yilning  
dekabriga nisbatan



o'tgan yilning sentabriga  
nisbatan

2020- yilning sentabrda aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining oy davomidagi o'sish sur'ati **0,5 %**, 2020- yilning yanvar-sentabrda ushbu guruh INI ning o'rtacha oylik o'sish sur'ati **0,5 %** ni tashkil etgan.

2019- yilning oxiriga nisbatan narxlarning o'sish sur'ati **4,5 %**, yillik davrda esa **5,9 %** ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrda, xizmatlar tariflari oy davomida 2,0 %, umumiy yanvar-sentabr oylarida esa 13,7 % ga ko'tarilgan. Xizmatlarning o'rtacha oylik INI o'sish sur'ati 1,4 f.d.ni tashkil qilgan. Yillik davrda ushbu sohada tarifar 19,5 % ga qimmatlashgan.



Joriy yilning sentabr oyida tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilik yo'lovchi tashish transporti xizmatlariga tegishli bo'lib, narxlar oy davomida 1,6 % ga, shu jumladan, havo transporti 0,9 % ga, temir yo'l transporti 0,3 % ga, avtomobil transporti xizmatlari 2,1 % ga qimmatlashdi.

Pandemiya sharoitida aholining to'lov qobiliyatini mustahkamlash maqsadida, mamlakatning davlat oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida kunduzgi o'qish uchun tayanch to'lov miqdoriga chegirmalar qo'llanilganligi ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy narxlarining o'rtacha 2,3 % ga pasayishiga olib keldi.

2020- yilning sentabrida O'zbekiston Respublikasi  
bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar alohida  
guruhlarining INI, % da



o'tgan oyga nisbatan




**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabrida umumiy xizmatlar tariflarining 2,0 % ga ko'tarilishida ta'lim sohasidagi xizmatlar narxlarining ko'tarilishi yaqqol namoyon bo'lgan (12,8 %). O'tgan yilning sentabr oyida kuzatuvga olingan shartnoma asosida davlat OTMlarda o'qish to'lovlari o'rtacha 18,7 %, chet tillari o'quv kurslari 3,7 %, xaydovchilikka tayyorlash kurslari 2,2 % ga qimmatlashgan.




2020- yilning yanvar-sentabrda O'zbekiston  
Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar  
alohida guruhlarining INI, % da

**o'tgan oyga nisbatan**


**Maishiy xizmatlar**




**Uy-joy kommunal xizmatlari**




**Aloqa xizmatlari**




**Yo'lovchi transporti xizmatlari**




**Dam olish xizmatlari**




**Madaniyat muassasalari xizmatlari**



**Sport xizmatlari**



**Tibbiy xizmatlar**



*Izoh: oylar rim raqamlarida keltirilgan.*

Umumiy hisobda, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi pog'onalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlari (15,2 %), dam olish (8,8 %), maishiy xizmatlar (8,3 %), shuningdek, yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (8,0 %) narxlari band etdi.

Yillik davrda asosiy guruhlar bo'yicha kuzatiladigan aholi uchun pullik xizmatlardan maktabgacha ta'lim (15,2 %), maishiy (12,1 %) va yo'lovchi tashish transporti (10,7 %) narxlarining sezilarli darajada o'sishi qayd etildi.



**2020- yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar alohida guruhlarining INI, % da**

| Xizmatlar nomi                                  | 2019- yilning dekabriga nisbatan | 2019- yilning sentabriga nisbatan |
|-------------------------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|
| <b>Maishiy xizmatlar</b>                        | <b>108,3</b>                     | <b>112,1</b>                      |
| <b>Uy-joy kommunal xizmatlari</b>               | <b>100,2</b>                     | <b>100,3</b>                      |
| <b>Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari</b>  | <b>108,0</b>                     | <b>110,7</b>                      |
| <b>Aloqa xizmatlari</b>                         | <b>100,2</b>                     | <b>100,6</b>                      |
| <b>Madaniyat muassasalari xizmatlari</b>        | <b>104,5</b>                     | <b>105,3</b>                      |
| <b>Sport xizmatlari</b>                         | <b>101,9</b>                     | <b>104,8</b>                      |
| <b>Dam olish xizmatlari</b>                     | <b>108,8</b>                     | <b>110,3</b>                      |
| <b>Tibbiy xizmatlar</b>                         | <b>107,7</b>                     | <b>109,5</b>                      |
| <b>Ta'lim xizmatlari</b>                        | <b>101,0</b>                     | <b>101,6</b>                      |
| <b>Maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlari</b> | <b>115,2</b>                     | <b>115,2</b>                      |


**Ma'lumot uchun:** 2018- yilning dekabriga nisbatan 2019- yilning sentabr oyida aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasidagi narxlar va tariflarning o'sishi bo'yicha ta'lim (21,3 %), davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim xizmatlari (20,5 %), shuningdek, uy-joy kommunal (17,7 %) hamda maishiy (14,9 %) xizmatlari narxlari yetakchi bo'lgan.

Yillik davrda (2018- yilning sentabriga nisbatan) tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilikni uy-joy kommunal (29,8 %), ta'lim (22,7 %), veterinariya (20,9 %) va maktabgacha ta'lim tashkilotlari sohasidagi xizmatlar (20,5%) egallagan.



## 2020- yilning sentabrda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi

### o'tgan oyga nisbatan



Joriy yilning sentabr oyida maishiy xizmatlar tariflarining ko'tarilishi oy davomida umumiy INI ning o'sishiga eng katta hissa qo'shdi (jami ta'siri 0,07 f.d.)

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning sentabr oyida aholiga pullik xizmat ko'rsatishning asosiy turlaridan oy davomida umumiy INI o'sishiga asosan ta'lim xizmatlari narxlari sezilarli hissa qo'shgan (0,23 f.d.).

*Izoh: ulushni hisoblashda natijalar 0,01 f.d.gacha yaxlitlangan.*

2019- yilning oxiriga nisbatan aholiga pullik xizmatlarning asosiy turlaridan maishiy xizmatlar tariflarining qimmatlashishi umumiy INI ko'rsatkichining o'sishiga salmoqli hissa qo'shgan (0,38 f.d.). Bundan tashqari, yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (0,25 f.d.), tibbiy (0,19 f.d.), shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatlari sohasidagi narxlarning oshishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan (umumiy hisobda 0,08 f.d.).

Yillik davrda umumiy ko'rsatkichning o'sishiga ta'siri jihatidan yetakchi o'rinlar maishiy (0,55 f.d.), yo'lovchi tashish transporti (0,33 f.d.), tibbiy xizmatlar (0,24 f.d.) narxlariga tegishlidir. Ushbu guruhlarining ulushi jami xizmatlar umumiy ta'sirining taxminan 80 % dan ortig'ini tashkil etadi.





**Ma'lumot uchun:** hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan koronavirus pandemiyasi (COVID-19) INI ni shakllantirish uchun ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayoniga o'zgarishlar kiritdi.

Xususan, deyarli barcha mamlakatlarning (shu jumladan, O'zbekistonda ham) statistika idoralari tomonidan tanlangan chakana savdo punktlarida (ya'ni tovarlar va xizmatlar, mavjud bo'lmagan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar) "yetishmayotgan tovarlar" sonini ko'payishi muammosiga duch keldilar. Yuzaga kelgan mavjud vaziyat ba'zi hollarda ma'lumot yig'ishning standart usullaridan foydalanishga imkon bermadi.

Bunday sharoitda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "Pandemiya davrida iste'mol narxlari indeksining hisoblanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar" (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ)), shuningdek, "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va "Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da keltirilgan tavsiyalardan foydalangan (<https://lib.stat.uz>)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisining 2020- yil 13- apreldagi 24- sonli buyrug'i bilan "Iste'mol narxlari kuzatuvida ayrim tovarlar va xizmatlar narxlarini (tariflarini) telefon so'rovi (vab yoki onlayn savdo platformalar) orqali aniqlash bo'yicha vaqtinchalik tartib" tasdiqlangan. Uni tayyorlash jarayonida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardagi tavsiyalar inobatga olingan.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashda maxsus dasturiy ta'minot va planshet qurilmalari asosida CAPI texnologiyasi qo'llanilgan.

Xususan, yetishmayotgan tovarlar va xizmatlarni baholashda quyidagi usullardan foydalanildi:

1) o'rganish davrida sotuvda bo'lmagan, ammo tovarlar va xizmatlar narxlari to'g'risida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha narxlar qayd etilgan (sotuvchilardan telefon orqali so'rov, sayt ma'lumotlari va boshqalar);

2) ayrim mahsulotlar uchun tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib beruvchilar bilan birgalikda narxlar dinamikasining ekspert bahosi o'tkazildi. Bunday baholash, masalan, havo va temir yo'l transporti xizmatlari, turistik xizmatlar va boshqalar bo'yicha o'tkazildi. Narxlar siyosatini hisobga olgan holda milliy valyutaning xorijiy valyutalarga

nisbatan o'zgaruvchanligi hisobga olingan (masalan, havo transporti uchun - yevro, Shveytsariya franki - davlatlararo temir yo'l transportidagi qatnovlar uchun);

3) narxlari to'g'risida to'liq ma'lumot mavjud bo'lmagan tovarlar va xizmatlar turlari uchun mavjud ma'lumotlardan foydalanib, yetishmayotgan tovarlar va xizmatlar narxlari to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumotlarni o'xshash tovarlar (xizmatlar) yoki yuqori turuvchi guruhlar narxlarining o'zgarishi bo'yicha indeksatsiyalashni ta'minlaydigan "hisoblash" uslubi qo'llanilgan.

Joriy yilning sentabr oyida narxlar va tariflar kuzatuvlari uchun tanlangan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari umumiy sonidan 89 % dan yuqori savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyat yuritgan.

Amaldagi uslubiy nizomga asosan, narxlarni ro'yxatga olish har oyning 10 dan 20 sanasigacha amalga oshiriladi. Narxlarni ro'yxatga olish oralig'i to'liq bir oyni tashkil etadi.

**Narxlar statistikasi boshqarmasi.**

**Tel.: +998 (71) 202-80-36, 202-81-74**